



№5

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Meyliyev Obid Raxmatullaevich	Soliqlarning budget daromadlaridagi ahamiyatini oshirish	7
2.	Мирзаева Матлуба Ғайбулла қизи	Тижорат банкларининг капитал базасини мустаҳкамлашнинг методологик ва амалий асосларини такомиллаштириш	14
3.	Жабборов Насриддин Мирзаодилович, Юнусова Шохсанам Муротовна, Бебугова Зулайхо Хамидовна, Сафарова Севара Қахрамон қизи	Тошкент вилояти туристик ҳудудлари имижли модели учун барқарорлик таҳлили	19
4.	Мухамедова Севара Абдуллаевна	Тижорат банкларида кичик бизнес лойиҳаларини кредитлашда банк таваккалчиликларини баҳолаш ва бошқариш тизими	27
5.	Abduqayumov Elyorbek Ulug'bek o'g'li, Yo'ldosheva Oygul Zokir qizi	Janubiy Koreya kinoindustriyasining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ta'siri	33
6.	Umarova Shahnoza	Moliyaviy faoliyat bo'yicha baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish	40
7.	Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	Avtomobilsozlik korxonalarining xarajat samaradorligini ekonometrik modellash	46
8.	Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	O'zbekistonda auditorlik faoliyatini tashkil etishning zaruriyati va uning ahamiyati	57
9.	Kurbanbayev Jurabek Eruvbayevich, Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	Auditorlik tekshiruvlarida tashqi tasdiqlardan foydalanish va ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish	66
10.	Абдурахманов Ўрол Наврўз ўғли	Акциядорлик жамиятлари аудитида таҳлилий амалларни қўллашни такомиллаштириш	71
11.	Sayfiddinov Sarvarbek Anvarbek o'g'li	Yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslarining o'rni	80
12.	Shodiyev Yashnarbek Baxriddin o'g'li	Davlat moliyaviy nazoratini modellar va metodologik yondashuvlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	92
13.	Muydinov Baxodirjon Numanovich	Korxonalarda ichki auditni tashkil etish va takomillashtirish	101
14.	Mirzanov Zakir Maratovich	Paxta yetishtirish va qayta ishlash klasterlarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytirish	111
15.	Тожибоева Дилором	XXI ахборотлар асри – қарор қабул қилиш жараёнининг мураккаблашуви асри	116
16.	Нурхонов Комилжон Товкараевич	Яшил иқтисодиётга ўтиш йўллари ва устуворликлари	124
17.	Saydullayev Nodirbek Narzullayevich	Inflyatsion targetirlash sharoitida markaziy bank valyuta intervensiyalari strategiyasini takomillashtirish mexanizmlari	132
18.	Хусаинов Равшан Рахимович	Сравнительный анализ налоговых систем зарубежных стран и трансформация их для Узбекистана	143
19.	Maxkamova Nazokat Umarali qizi	O'zbekiston iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'rni	150
20.	Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	Temir yo'l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirishning innovatsion mexanizmlari	156
21.	Kuliboyev Azamat Shonazarovich	Davlat tibbiyot tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya, amaliyot va uslubiyot	165





22.	Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o‘g‘li	Raqamli texnologiyalar asosida budget tashkilotlarida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish: Farg‘ona viloyati misolida	179
23.	Xasanova Shaxzoda Sarvarq qizi	Avtomatlashtirish davrida ayollarning mehnat bozoridagi transformatsiyasi: global tendensiyalar va O‘zbekistonning 2030-yilgacha imkoniyatlari	188
24.	Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	Бюджет ташкилотларида узок муддатли активлар билан боғлиқ молиялаштириш манбалари	194





**AVTOMATLASHTIRISH DAVRIDA AYOLLARNING MEHNAT BOZORIDAGI
TRANSFORMATSIYASI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTONNING
2030-YILGACHA IMKONIYATLARI**

Xasanova Shaxzoda Sarvarq qizi



*iqtisodiyot va menejment kafedrası o'qituvchisi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

E-mail: shahzoda_xasanova@tsuos.uz

G.V. Plexanov nomidagi Rossiya

*iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali,
mehnat iqtisodiyoti va strategik menejment
kafedrası mustaqil izlanuvchisi*

E-mail: sshakhzoda@yahoo.com

ORCID: 0009-0000-4452-0073

Annotatsiya. Maqolada avtomatlashtirish sharoitida ayollarning mehnat bozoridagi o'rniga oid global tendensiyalar Makkinzi Global Instituti (2019) ma'lumotlari asosida, O'zbekistonning 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi doirasidagi chora-tadbirlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Vazifaga asoslangan texnologik o'zgarish nazariyasiga tayanib, global va milliy darajadagi o'rtasidagi mosliklar va tafovutlar aniqlanadi.

Kalit so'zlar: avtomatlashtirish, mehnat bozori transformatsiyasi, gender tenglik, ayollar tadbirkorligi, raqamli ko'nikmalar, 2030-yilgacha strategiya.

**ТРАНСФОРМАЦИЯ ПОЛОЖЕНИЯ ЖЕНЩИН НА РЫНКЕ ТРУДА В ЭПОХУ
АВТОМАТИЗАЦИИ: ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ВОЗМОЖНОСТИ
УЗБЕКИСТАНА ДО 2030 ГОДА**

Хасанова Шахзода Сарвар кизи

*преподаватель кафедры
экономика и менеджмент*

*Ташкентский государственный
университет востоковедения*

E-mail: shahzoda_xasanova@tsuos.uz

ORCID: 0009-0000-4452-0073

*Ташкентский филиал Российского
экономического университета
имени Г.В. Плеханова*

соискатель кафедры экономика

труда и стратегический менеджмент

E-mail: sshakhzoda@yahoo.com

ORCID: 0009-0000-4452-0073

Аннотация. В статье на основе данных Global Institute McKinsey (2019) проводится сопоставительный анализ глобальных тенденций положения женщин на рынке труда в условиях автоматизации с мерами, предусмотренными Стратегией достижения гендерного равенства в Узбекистане до 2030 года. Опираясь на теорию технологических изменений на основе задач, выявляются соответствия и разрывы между глобальными и национальными приоритетами (инвестициями в навыки, инфраструктурой ухода и доступом к технологиям).

Ключевые слова: автоматизация, трансформация рынка труда, гендерное равенство, женское предпринимательство, цифровые навыки, стратегия до 2030 года.





**WOMEN'S LABOR MARKET TRANSFORMATION IN THE AGE OF
AUTOMATION: GLOBAL TRENDS AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES
TOWARD 2030**

Khasanova Shakhzoda Sarvar kizi

Tashkent State University of Oriental Studies

Lecturer, Department of Economics and Management

E-mail: shahzoda_xasanova@tsuos.uz

Tashkent Branch of the Plekhanov

Russian University of Economics

*External
Doctoral Candidate, Department*

of Labor Economics and Strategic Management

E-mail: sshakhzoda@yahoo.com

ORCID: 0009-0000-4452-0073

Abstract. *Drawing on McKinsey Global Institute (2019) data, the article compares global trends in women's labor market position under automation with the measures set out in Uzbekistan's Strategy for Achieving Gender Equality until 2030. Applying task-based technological change theory, it identifies alignments and gaps between global and national priorities: skills investment, care infrastructure, and access to technology.*

Keywords: *automation, labor market transformation, gender equality, women's entrepreneurship, digital skills, strategy toward 2030.*

Kirish

Ish o'rinlarining tarkibi so'nggi o'n yillikda texnologik omillar hisobiga tezlashgan sur'atda qayta shakllanmoqda. Makkinzi Global Instituti 2019-yilda e'lon qilgan hisobotga ko'ra, 2030-yilga borib dunyoda 40 milliondan 160 milliongacha ayol boshqa kasb turiga o'tishga majbur bo'lishi mumkin bu hozirgi bandlikning 7 dan 24 foizigacha qismini tashkil qiladi va ko'pincha yuqoriroq malaka talab qiluvchi yo'nalishlarga siljishni bildiradi. Xuddi shunday jarayon erkaklarni ham chetlab o'tmaydi: ularda bu ko'rsatkich 8 dan 28 foizgacha, ya'ni 60 dan 275 milliongacha kishini qamrab oladi. Farq shundaki, ayollar bu o'tishni qanchalik uddalay olsa, bandlikdagi ulushini o'sha darajada saqlab qolish imkoniga ega bo'ladi; aks holda mehnat bozoridagi mavjud tengsizlik yanada kengayishi mumkin [1].

Bu jarayon O'zbekiston uchun ham chetda qolmaydi: 2021-yilda tasdiqlangan 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi aynan shunday tuzilmaviy siljish davrida ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan hujjat sifatida qabul qilingan [4]. Shu sababli mazkur maqolada ikki qatlamli masala ko'tariladi: birinchidan, avtomatlashtirish ayollarning mehnat bozoridagi o'rniga qanday ta'sir ko'rsatishi global miqyosda qanday baholanmoqda; ikkinchidan, O'zbekiston strategiyasidagi chora-tadbirlar shu tendensiyalarga qay darajada javob beradi.

Avtomatlashtirishning mehnat bozoriga ta'sirini tushuntirishda D. Acemoglu va P. Restrepo ishlab chiqqan vazifaga asoslangan yondashuv qo'l keladi [2]. Bu yondashuvga ko'ra, texnologik o'zgarish ikki qarama-qarshi jarayonni bir vaqtda ishga tushiradi: bir tarafda takrorlanuvchi operatsiyalarga asoslangan ish o'rinlari siqilib chiqadi, boshqa tarafda esa yangi texnologik vazifalar atrofida ilgari mavjud bo'lmagan kasblar paydo bo'ladi. Muammo shundaki, erkaklar va ayollar iqtisodiyotning turli tarmoq va lavozimlarida bir xil taqsimlanmagan, shu bois ikkala jarayon ham ularga bir xil kuch va shaklda ta'sir qilmaydi.

Adabiyotlar sharhi

Avtomatlashtirishning mehnat bozoriga ta'sirini tushuntirishda D. Acemoglu va P. Restrepo ishlab chiqqan vazifaga asoslangan yondashuv qo'l keladi [2]. Bu yondashuvga ko'ra, texnologik o'zgarish ikki qarama-qarshi jarayonni bir vaqtda ishga tushiradi: bir tarafda takrorlanuvchi





operatsiyalarga asoslangan ish o'rinlari siqilib chiqadi, boshqa tarafda esa yangi texnologik vazifalar atrofida ilgari mavjud bo'lmagan kasblar paydo bo'ladi. Muammo shundaki, erkaklar va ayollar iqtisodiyotning turli tarmoq va lavozimlarida bir xil taqsimlanmagan, shu bois ikkala jarayon ham ularga bir xil kuch va shaklda ta'sir qilmaydi.

Vazifaga asoslangan nazariy asos empirik ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. Makkinzi Global Instituti (2019) o'n mamlakat kesimida avtomatlashtirishning ayollar bandligiga ta'sirini miqdoriy baholagan yirik tadqiqot hisoblanadi va mazkur maqolaning asosiy global ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi [1]. BMTTDning O'zbekistondagi ayollar tadbirkorligi bo'yicha 2025-yilgi so'rovnomasi milliy darajadagi amaliy qiyinchiliklarni, xususan ish va oila mas'uliyati o'rtasidagi muvozanatni, ko'rsatib beradi [6]. Jahon banki har yili e'lon qiladigan “Women, Business and the Law” hisoboti esa ayollarning iqtisodiy faoliyatiga oid huquqiy-me'yoriy muhitni kuzatib boradi va tadqiqotga qo'shimcha normativ fon yaratadi [7]. Uch manba birgalikda nazariy, statistik va huquqiy o'lchamlarni qamrab oladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot sifat tavsifiga ega qiyosiy tahlil sifatida qurilgan va ikkilamchi manbalar ustida olib borilgan. Global qatlamda Makkinzi Global Institutining 2019-yilgi hisoboti, milliy qatlamda esa O'zbekiston Respublikasining tegishli qonuni va Senat qarorlari [3, 4, 5], shuningdek gender.stat.uz portali ma'lumotlari ishlatildi. Ikki qatlamni bog'lash uchun Acemoglu va Restreponing vazifaga asoslangan texnologik o'zgarish nazariyasi tahliliy asos sifatida qo'llanildi: bu nazariya avtomatlashtirishning ish o'rinlarini yo'qotish va yangi vazifa yaratish jarayonlarini bir vaqtda hisobga olish imkonini beradi.

Qiyoslash ko'nikmalarga sarmoya, g'amxo'rlik infratuzilmasi va texnologiyaga kirish bilan rahbarlik ulushi kabi uch yo'nalish kesimida amalga oshirildi: har bir yo'nalish bo'yicha Makkinzi hisobotidagi global ko'rsatkichlar O'zbekiston strategiyasidagi tegishli chora-tadbirlar bilan solishtirildi. Tadqiqotning cheklovi shundaki, milliy dasturlarning bir qismi, jumladan STEM laboratoriyalari va “Step to PhD” dasturi bo'yicha ochiq qamrov statistikasi mavjud emas, shu sababli ularning real ta'sirini miqdoriy baholash imkoni hozircha cheklangan.

Tahlil va natijalar

Makkinzi tahlilchilari olti rivojlangan (Kanada, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSh) va to'rtta rivojlanayotgan (Xitoy, Hindiston, Meksika, Janubiy Afrika) iqtisodiyot misolida hisob-kitob o'tkazgan. Natijaga ko'ra, 2030-yilgacha ayollarning ish vaqti hajmining o'rtacha beshdan biri, aniqrog'i 107 million ish o'rniga teng qismi, avtomatlashtirish tufayli yo'qolishi mumkin; erkaklarda bu ko'rsatkich 163 million ish o'rniga, ya'ni 21 foizni tashkil etadi. Ayni paytda yangi texnologiyalar hisobiga ochiladigan lavozimlar ham katta: ayollar uchun 171 million (joriy bandlikning 20 foizi), erkaklar uchun 250 million (19 foizi) qo'shimcha ish o'rniga yaratilishi mumkin. Raqamlarning umumiy hajmi deyarli tenglashsa-da, ularning ichki tarkibi bir-biridan tubdan farq qiladi [1].

Yo'qotilishi kutilayotgan lavozimlar tarkibi gender kesimida sezilarli farqlarga ega. Xususan, ayollar bandligida xizmat ko'rsatish, ma'muriy yordam va kotibiyat vazifalari asosiy qisqarish manbai sifatida namoyon bo'lib, ushbu toifa ayollar orasida yo'qotiladigan ish o'rinlarining yarmidan ko'prog'ini, ya'ni 52 foizini tashkil etadi. Bu holat aynan takrorlanuvchi va standartlashtirilgan ma'muriy vazifalarning avtomatlashtirish hamda raqamlashtirish ta'siriga nisbatan yuqori darajada sezgir ekanini ko'rsatadi. Erkaklar bandligida esa mashina operatorligi, ishlab chiqarish bilan bog'liq texnik vazifalar va hunarmandchilik kasblari asosiy yo'qotish manbai bo'lib, ularning umumiy ulushi 40 foizga yetadi.

Yangi yaratiladigan ish o'rinlari tarkibida esa mutlaqo boshqa tendensiya kuzatiladi. Ayollar uchun eng katta bandlik o'sishi sog'liqni saqlash sohasida qayd etilib, uning ulushi 25 foizni tashkil etsa, erkaklar uchun yangi imkoniyatlarning eng katta qismi sanoat ishlab chiqarishi hissasiga to'g'ri kelib, bu ko'rsatkich ham 25 foiz darajasida shakllanadi [1]. Mazkur tendensiyalar





mehnat bozoridagi tarkibiy o'zgarishlar nafaqat kasblar kesimida, balki gender nuqtayi nazaridan ham turlicha kechayotganini ko'rsatadi. Shu sababli kelgusida bandlik siyosatini shakllantirishda ayollar va erkaklar uchun alohida qayta tayyorlash, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish hamda yuqori talabga ega bo'lgan yangi kasblarga moslashtirish dasturlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kerakli malaka darajasi ham mamlakat rivojlanish bosqichiga qarab boshqacha shakllanadi. Rivojlangan iqtisodiyotlarda oliy va undan yuqori ma'lumotga ega ayollarga talab ortadi, biroq faqat o'rta maxsus ta'limga tayangan lavozimlar soni sezilarli qisqaradi.

1-jadval

Raqamli transformatsiya ta'sirida ayollar va erkaklarning mehnat bozoridagi o'zgarishi: global prognoz (2030-yilgacha)*

Ko'rsatkich (2030-yilgacha)	Ayollar	Erkaklar
Kasb turini almashtirishi mumkin bo'lganlar ulushi	7–24% (40–160 mln)	8–28% (60–275 mln)
Avtomatlashtirish hisobiga yo'qoladigan ish vaqti ulushi	20% (107 mln)	21% (163 mln)
Yangi ish o'rinlari hisobiga yaratiladigan imkoniyat	20% (171 mln)	19% (250 mln)
Eng katta yo'qotish tarmog'i	Xizmat ko'rsatish (52%)	Mashina operatorligi (40%)
Eng katta o'sish tarmog'i	Sog'liqni saqlash (25%)	Sanoat (25%)

*Manba: Muallif tomonidan bajarilgan

Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda esa manzara boshqacha: o'rta ta'lim darajasidagi malakaga ehtiyoj keskin oshadi, shu bilan birga oliy va o'rta maxsus ta'limga bo'lgan talab ham pasaymay, aksincha ko'tariladi. Ish haqi bo'yicha ham shunga o'xshash ikkilanish kuzatiladi: rivojlangan mamlakatlarda yuqori maoshli o'tishlar o'rtacha 4 foiz qo'shimcha daromad bersa, o'rta va past maoshli o'tishlarda mos ravishda 11 va 7 foizlik yo'qotish xavfi bor. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda esa vaziyat aksincha: barcha maosh toifalarida, yuqorida 8, o'rtada 10, pastda 7 foizgacha, ijobiy o'sish kutiladi. Bu O'zbekiston singari mamlakatlar uchun texnologik o'tish jarayoni, agar to'g'ri boshqarilsa, ish haqi nuqtai nazaridan foydaga aylanishi mumkinligini ko'rsatadi [1].

Tadqiqotchilar uchta amaliy yo'nalishni ustuvor deb belgilaydi: birinchisi, ayollarni zamonaviy ko'nikmalar bilan qurollantiruvchi o'quv dasturlariga mablag' yo'naltirish; ikkinchisi, pullik mehnat bilan uy xo'jaligi majburiyatlarini muvozanatlashtirishga xizmat qiluvchi infratuzilmani rivojlantirish; uchinchisi, ayollarning texnologik vositalardan foydalanish ko'nikmasini, shuningdek texnologiya sohasidagi ish o'rinlari va rahbarlik lavozimlaridagi ulushini kengaytirish [1].

O'zbekistonning milliy chora-tadbirlari

Milliy darajada gender tengligi masalasi ikkita asosiy hujjatga tayanadi: 2019-yil 2-sentyabrda kuchga kirgan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-562-son) [3] va 2021-yil 28-mayda Senat tomonidan ma'qullangan 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi (SQ-297-IV-son) [4]. Ushbu strategiyaning o'ziga xosligi shundaki, u bir marta tasdiqlanib qolgan hujjat emas: har yil uchun alohida amalga oshirish dasturi qabul qilinadi, jumladan 2025-yilga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi shu yilning 18-martida SQ-102-V-son Senat qarori bilan kuchga kiritilgan [5]. Hujjat Barqaror rivojlanish maqsadlarining beshinchi bandiga (gender tenglikka) muvofiq to'qqizta yo'nalishni





qamrab oladi va ayollarning siyosat, iqtisodiyot hamda jamiyat boshqaruvidagi qaror qabul qilish jarayonlariga to'liq jalb etilishini nazarda tutadi.

Amaliyotda bu strategiya bir necha institutsional tuzilma orqali ishlaydi: Senat qoshidagi Ayollar va gender tenglik qo'mitasi, Ayollar tadbirkorligi markazi, zo'ravonlikdan jabr ko'rganlarni reabilitatsiya qilish respublika markazi va "Oila" ilmiy-tadqiqot markazi. Avtomatlashtirish kontekstida ayniqsa e'tiborli tomoni: qizlar va ayollarni texnika yo'nalishlariga jalb qiluvchi STEM laboratoriyalarining ochilishi, ilmiy martaba qurishga yordam beruvchi "Step to PhD" dasturi va "Future: Community of Scientific Girls" tashabbusi. Bunga qo'shimcha, 2017-yildan boshlab universitetlarda farzand parvarishi bilan ta'limni birga olib borish imkonini beruvchi bo'limlar ham faoliyat yuritmoqda. Bu chora-tadbirlarning natijaviyligi gender.stat.uz portalida joriy etilgan 54 ta qo'shimcha ko'rsatkich orqali kuzatilmoqda [8].

Raqamlar ham ijobiy manzarani tasdiqlaydi: 2024-yilda mamlakatda faoliyat yuritayotgan ayol tadbirkorlar soni 2,1 million kishiga yetgan, bu 2020-yilgi ko'rsatkichdan yetti barobar yuqori. Ayollarga qaratilgan tijorat bank kreditlari hajmi shu davrda 4,9 trillion so'mdan 16,8 trillion so'mgacha o'sgan, "Oilaviy tadbirkorlik" dasturi doirasidagi loyihalar soni esa 4615 tadan 188 minggacha ko'paygan [8]. Biroq Senat o'z monitoringida kamchiliklarni ham qayd etgan: zo'ravonlik sodir etganlarni qayta tarbiyalash dasturlari to'liq bajarilmagan, Milliy kadrlar zaxirasidan davlat korxonalari kuzatuv kengashlariga ayollarning jalb qilinishi esa hamon past darajada qolmoqda [5]. Bu holat rahbarlik pog'onasidagi nomutanosiblik hali bartaraf etilmaganidan darak beradi

Global va milliy tendensiylarning qiyosiy tahlili

Ikki darajadagi, global va milliy, ma'lumotlarni yonma-yon qo'yish qiziqarli mosliklar va nomosliklarni ochadi. Makkinzi hisobotida ayollar uchun eng zaif nuqta xizmat ko'rsatish va kotibiyat sohasi sifatida ko'rsatilgan bo'lsa, O'zbekistonda ayol tadbirkorlarning asosiy qismi savdo va qishloq xo'jaligida jamlangan: bular unumdorligi past, biroq avtomatlashtirish nuqtai nazaridan hozircha birinchi galdagi nishon hisoblanmaydigan tarmoqlar. Xavf boshqa yoqda: ayollarning iqtisodiy faoliyati aynan shu past unumdorlikdagi bo'shliqda qotib qolishi mumkin, holbuki dunyo miqyosida o'sish salohiyati sog'liqni saqlash va texnologik xizmatlar kabi yo'nalishlarga siljimoqda.

STEM laboratoriyalari va "Step to PhD" singari dasturlar Makkinzi ta'kidlagan birinchi ustuvorlik, ya'ni ko'nikmalarga sarmoya, bilan bevosita ohangdosh. Ammo bu dasturlarning qanchalik keng qamrovga ega ekani haqida ochiq statistika yetishmaydi, natijada ularning real ta'sirini baholash qiyinlashadi. Ikkinchi ustuvorlik, ya'ni g'amxo'rlik va pullik mehnat o'rtasidagi muvozanat uchun infratuzilma, BMTTDning 2025-yilgi so'rovnomasida chiqqan xulosa bilan to'g'ridan-to'g'ri kesishadi: unda ishtirok etgan ayol tadbirkorlarning deyarli yarmi, 48 foizi, ish va oila mas'uliyatini muvozanatlashtirishni eng jiddiy muammo sifatida ko'rsatgan [6]. Ikki mustaqil manbaning aynan shu nuqtaga kelib to'xtashi g'amxo'rlik infratuzilmasi masalasining naqadar ustuvor ekanini tasdiqlaydi. Uchinchi yo'nalish, texnologiyaga kirish va rahbarlik ulushi, faqat qisman qamrab olingan: texnik ko'nikmalarga sarmoya kiritilsa-da, Senatning o'z hisobotida tan olinganidek [5], ayollarning davlat korxonalari boshqaruviga kirib borishi hamon cheklangan. Demak, texnik tayyorgarlikning o'zi rahbarlik tafovutini bartaraf etish uchun yetarli emas.

Xulosa

Tahlil yakunida shuni aytish mumkin: O'zbekistonning 2030-yilgacha gender strategiyasi avtomatlashtirish davri talab qilayotgan yo'nalishlarning bir qismini, xususan ta'lim va ko'nikma tarkibini, allaqachon qamrab olgan. Biroq bu chora-tadbirlarning o'lchanadigan natijaga aylanishi, shuningdek tadbirkorlik va rahbarlik siyosati bilan bog'lanishi hali yetarli emas.

Shundan kelib chiqib, quyidagi yo'nalishlar taklif etiladi. Birinchidan, gender.stat.uz tizimidagi 54 ta ko'rsatkich qatoriga ayollarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi ishtiroki va raqamli savodxonlik darajasini aks ettiruvchi yangi indikatorlar kiritilishi





kerak. Ikkinchidan, Ayollar tadbirkorligi markazining qo'llab-quvvatlash yo'nalishi savdo va qishloq xo'jaligidan tashqariga, sog'liqni saqlash xizmatlari va texnologik yechimlar kabi yuqori qiymat yaratuvchi sohalarga, kengaytirilishi maqsadga muvofiq. Uchinchidan, STEM laboratoriyalari va "Step to PhD" dasturi o'lchanadigan qamrov ko'rsatkichlari bilan ta'minlanishi, shuningdek Milliy kadrlar zaxirasi orqali rahbarlik lavozimlariga chiqish yo'li bilan bog'lanishi lozim. Va nihoyat, davlat mablag'lari hisobidan bolalar va keksalarga g'amxo'rlik infratuzilmasini kengaytirish, global va milliy tadqiqotlarning ikkalasida ham eng izchil takrorlangan tavsiya sifatida, ustuvor chora bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. McKinsey Global Institute. The Future of Women at Work: Transitions in the Age of Automation. – 2019.
2. Acemoglu D., Restrepo P. The Race between Man and Machine: Implications of Technology for Growth, Factor Shares, and Employment // American Economic Review. – 2018. – Vol. 108, No. 6. – P. 1488–1542.
3. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 2-sentyabr, O'RQ-562-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-son qarori. 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida.
5. O'zbekiston Respublikasi Senatining 2025-yil 18-martdagi SQ-102-V-son qarori. 2030-yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasini 2025-yilda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida.
6. UNDP. Women's Entrepreneurship in Uzbekistan: Assessment and Recommendations. Tashkent, 2025.
7. World Bank. Women, Business and the Law 2024. – Washington, D.C., 2024.
8. O'zbekiston Respublikasi hukumat portali (gov.uz). Uzbekistan's Strategy for Achieving Gender Equality. – kirish sanasi: 2026-yil sentyabr.

